


P. G'ULOMOV, SH. MIRZAXMATOVA

Atrofimizdagi olam

Umumiy o'rta ta'lif maktablarining
2-sinfi uchun darslik

Qayta ishlangan va to'ldirilgan
oltinchi nashri

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi
vazirligi tasdiqlagan



Cho'lpox nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent — 2018

UO'K 372.362(075)

KBK 20.18ya71

A 87

Mas'ul muharrir

H. Vahobov – geografiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar

I. Sagdullayev – biologiya fanlari nomzodi, dotsent;

M. Bositxonova – Toshkent shahar 324-maktab
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Shartli belgilar:



Savollar



Topshiriqlar



Amaliy ish



Dars tugadi

**Respublika maqsadli kitob jamg'armasi
mablag'lari hisobidan chop etildi.**

ISBN 978-9943-05-819-4

© P. G'ulomov, Sh. Mirzaxmatova, 2018

© Cho'lpox nomidagi NMIU, 2016

© Cho'lpox nomidagi NMIU, 2018

ATROFIMIZDAGI OLAMNI O'RGANAMIZ



1-§. ATROFIMIZDAGI OLAM

Siz ko‘radigan hamma narsalar — binolar, daraxtlar, gullar, suvlar, mashinalar, kapa-laklar, tog‘lar, Quyosh, Oy va yulduzlarni atrofimizdagi olam deymiz (1-rasm).

Atrofimizdagi olam juda xilma-xil bo‘lib, sirlari ko‘p.

Odamlar qadimdan tabiatni o‘rganishga qiziqishgan. Uning sirlarini bilishga inti-lishgan.




1-rasm. Atrofimizdagi olam

Atrofimizdagи olamni o‘rganish uni kuza-tishdan boshlanadi. Biz atrofimizdagи olamni sezgi a’zolarimiz yordamida sezamiz va kuza-tamiz.

Ko‘zimiz ko‘radi, qulog‘imiz eshitadi. Tili-miz ta’mni, burnimiz hidni, terimiz issiq va sovuqni sezadi (**2-rasm**).

Ba’zi bir hodisalarni bilish uchun ama-liy ishlar o’tkazamiz. Tabiatga sayrga chi-qamiz.

Tabiatda kuzatgan narsa va hodisalarni «Ish daftari»ga yozib borasiz.



2-rasm. Odamning sezgi a’zolari:

- 1 — burun; 2 — qulog; 3 — ko‘z;
4 — til; 5 — teri.

Tayanch so‘zlar: atrofimizdagи olam, sezgi a’zolari, hodisa, ish daftari.



Savollar

1. Atrofimizdagи olam nima?

2. Qanday sezgi a'zolarini bilasiz?
3. «Ish daftari»ga nimalar yoziladi?



Topshiriq

«Ish daftari»ni tuting. Bu daftarga topshiriqlar javobi, har kungi ob-havo holati va belgilarini yozib borasiz.



2-§. TABIATDAGI JISM VA MODDALAR

Siz ko'rib turgan barcha narsalar jism va moddalardan iborat: bino, mashina, daraxt, kitob, stol, stul.

Biz yashaydigan Yer, osmondagি Quyosh, Oy, yulduzlar ham jism.

Ba'zi bir jismlar tabiiy bo'ladi (3-rasm). Ba'zi jismlarni odamlar yasashadi (4-rasm).



3-rasm.

*Tabiiy
jismlar*

Jismlar moddalardan tuzilgan bo'ladi. Moddalar tabiiy holda ham uchraydi. Ulardan har xil shakldagi jismlarni yasash mumkin. Temirdan g'ildirak, ketmon, mashinalar yasa-ladi.

Bunda g'ildirak, ketmon, mashinalar — jismlar, temir esa moddadir.



4-rasm. *Odamlar yasagan jismlar*

Mis, oltin, tuz, suv, shakar, biz nafas olayotgan havo ham moddadir. Tabiatda uch-raydigan ko‘p moddalar uch xil: suyuq, qattiq va bug‘ holatida bo‘lishi mumkin. Buni suv misolida ko‘rib chiqamiz. Bir parcha muzni muzlatkichdan olib idishga solib qo‘ysak, u erib suvgaga aylanadi. Suvni qaynatsak, bug‘ hosil bo‘ladi. Demak, suv qattiq (muz), suyuq (suv) va bug‘ (gaz) holatida uchraydi (5-rasm).

Har qanday jism va modda ma’lum bir og‘irlilikka ega. Ularning og‘irligi tarozilar yordamida o‘lchanadi.



5-rasm. *Suvning uch holatdagi ko‘rinishi:*
 1 — suyuq holati (*suv*); 2 — bug‘ holati;
 3 — muz holati.

Tayanch so‘zlar: jism, modda, gaz, og‘irlik, bug‘.



Savollar

1. Jism nima? Atrofimizda qanday jismlar bor?
2. Modda nima? Qanday moddalarni bilasiz?
3. Moddalar qanday holatlarda bo‘ladi?



Topshiriq

Uyingizda suvning uch holatda bo‘lishini tajriba qilib ko‘ring. Buning uchun muzlatkichning muzzxonasidan bir parcha muz oling. Bu — suvning qattiq holati. Endi uni piyolaga soling. U erib, suvgaga aylanadi. So‘ngra bu suvni qaynatsangiz bug‘ga aylanadi. Bug‘ — suvning gaz holati.

Tajribani kattalar yordamida bajaring.



3-§. OB-HAVO

Bugun ertalab havo ochiq, ancha salqin bo'ldi. Tushga kelib havo isidi. Kechga borib osmonda bulut paydo bo'ldi. Ozgina yomg'ir yog'di. Havoning mana shunday qisqa vaqt-dagi holati ob-havo deyiladi. Ob-havo tez-tez o'zgarib turadi (6-rasm). Bahor, yoz, kuz va qish fasllarining ob-havosi bir-biridan farq qiladi.


Ob-havoning qanday ekanligi uning belgilari qarab aniqlanadi. Havoning harorati, bulutlilik, yog'inlar, shamollar ob-havoning belgilari deyiladi.

Ob-havo hodisalarining shartli belgilari


- | | |
|-------------------|-----------|
| ○ Havo ochiq | ✿ Qor |
| ● Havo bulut | ✉ Yomg'ir |
| ◐ Havo yarimbulut | |

Ob-havoning qandayligini bilish uchun uni doim kuzatib turish kerak. Kuzatish ma'lumotlari «Ish daftari»ga yozib boriladi.


Ob-havoning belgilari turli asboblar yordamida o'lchanadi. Havo harorati termometr



1



2



3



4

6-rasm. *Ob-havo holatlari*: 1 — *havo ochiq*;
2 — *havo aynidi*; 3 — *yomg‘ir yog‘moqda*;
4 — *daraxtzorni tuman qopladi*.

(7-rasm), yog‘in miqdori yog‘in o‘lchagich asbobi bilan o‘lchanadi.

Havo isigan paytda termometr naychasi ichidagi simob kengayib, yuqoriga ko‘tariladi.

Simob shkaladagi qaysi raqamgacha ko‘tarilib borib to‘xtasa, havo harorati shuncha daraja bo‘ladi.



3

7-rasm. Termometrlar:

- 1 — havo haroratini o‘lchaydigan;
- 2 — suv haroratini o‘lchaydigan;
- 3 — tana haroratini o‘lchaydigan.

Havo issiq bo'lsa, raqam oldiga «+», sovuq bo'lsa «—» belgisi qo'yiladi.



Amaliy ish

Termometr yordamida havo haroratini o'lchang. Harorat necha daraja ekanini «Ish daftari»ga yozib qo'ying.

Tayanch so'zlar: ob-havo, ob-havo belgilari, harorat, yog'in, bulutlilik, termometr, daraja.



Savollar

1. Ob-havo deganda nimani tushunasiz?
2. Ob-havoning belgilari nimalar?
3. Termometrlar bilan nima o'lchanadi?



Topshiriq

Bugundan boshlab ob-havoni kuzatib boring va kelgusi dars bo'ladigan kungacha ob-havo qanday bo'lganligini «Ish daftari»ga yozib keling.

Ob-havo belgilari

- Tutun yuqoriga tik ko'tarilsa, ob-havo o'zgarmaydi.
- Tunda shudring, qirov qalim tushsa, ertasiga havo ochiq bo'ladi.
- Ertalab quyosh qizarib chiqsa, havo ayniydi.



O'LKAMIZDA KUZ




4-§. YIL FASLLARI

Bizning Vatanimiz — O'zbekistonda har yili to'rt fasl navbat bilan almashib keladi. Bu bahor, yoz, kuz va qish fasllaridir (8-rasm). Har bir faslning ob-havosi bir-biridan farq qiladi.

O'simliklarning rangi ham har faslda turli ko'rinishda bo'ladi.

Fasllar almashinishi Quyoshga bog'liq. Quyoshdan kelayotgan nur Yer yuzini yoritib, isitadi.



1



2



3



4


8-rasm. *Yil fasllari:* 1 — *bahor*; 2 — *yoz*;
3 — *kuz*; 4 — *qish*.

Agar Quyosh nur sochib turmaganda Yer yuzi sovuq va qorong'i bo'lar edi. Yerda hayot bo'lmas, o'simliklar o'smas edi.

Ob-havo ham Quyoshga bog'liq. Yozda Quyosh baland ko'tariladi. Uning nuri Yer yuzasiga tik tushadi, shuning uchun kunlar uzun va issiq bo'ladi.

Qishda esa Quyosh baland ko'tarilmaydi, nuri qiya tushadi. Shuning uchun kunduz qisqa bo'lib, kechasi uzun, havo sovuq bo'ladi (9-rasm).

Kuz va bahor fasllarida Quyoshning balandligi o'rtacha bo'ladi. Shu sababli kunlar issiq ham bo'lmaydi, sovib ham ketmaydi.



9-rasm. Quyoshning yoz, kuz, bahor va qishda osmonda turish holati

Tayanch so‘zlar: Quyosh, yil fasllari, bahor, yoz, kuz, qish.



Savollar

1. O‘lkamizda har yili qaysi fasllar almashinib keladi?
2. Fasllar bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?
3. Quyoshning bizga qanday ahamiyati bor?
4. Fasllarning almashinib turishiga nima sabab bo‘ladi?



Topshiriq

«Ish daftari»ngizga quyidagi jadvalni chizing. Har bir faslning oylari nomini yozing.

Qish	Bahor	Yoz	Kuz



5-§. KUZ NE’MATLARI

Kuzda Respublikamizda poliz ekinlari, shirin-shakar mevalar, qovun-tarvuzlar pi-shadi. Paxta ochiladi.

Dehqonlar, bog'bonlar yetishtirgan hosil-larini yig'ib-terib oladilar.

Kuz fasli sentabr, oktabr va noyabr oy-laridan iborat.

Kuz mamlakatimizda ayni pishiqchilik fasli. Bog'larda uzum, olma, nok, behi, anor va boshqa mevalar g'arq pishadi (10-rasm).

Dalalarda esa poliz ekinlaridan qovun, tarvuz, qovoq; sabzavot ekinlaridan kartosh-ka, sabzi, piyoz, sholg'om, karam yetilib pishadi (11-rasm).

Bularning hammasi kuzning noz-ne'matla-ridir.



*10-rasm. O'lkamizning shirin-shakar
mevalari*




11-rasm. Qovun va tarvuz polizida

Ular qish kelguncha yig‘ib olinmasa, sovuq urib nobud bo‘ladi.

Mevalar qishga saqlab qo‘yilishi uchun, avval daraxtlardan bittalab terib olinadi (12-rasm).

So‘ngra saralanib, yashiklarga ehtiyyotkorlik bilan joylanadi va salqin omborxonalariga taxlab qo‘yiladi.

Paxta juda ko‘p mehnat talab qiladigan ekin. Paxtani uvol qilmay yig‘ib-terib olish zarur (13-rasm).



12-rasm. Bog‘da mevalarni terib olish

Ko‘pgina sabzavot ekinlari yerdan kovlab olinib, tozalanadi.

Ular maxsus omborxonalarda saqlanadi.

Kartoshka, sabzi, turp, sholg‘omni maxsus o‘ralarda ham saqlash mumkin.

Ekinlar yig‘ib olingach, yer shudgorlanadi.

Tayanch so‘zlar: kuz oylari, bog‘, paxta, poliz ekinlari, sabzavotlar, shudgor.



Savollar

1. Kuz fasli qaysi oylardan iborat?
2. Kuzda qaysi mevalar pishadi?
3. Nima uchun mevalarni saqlab qo‘yamiz?



13-rasm. *Mashinada paxta terish*



Topshiriq

«Ish daftari»ngizga quyidagi jadvalni chizing va mevalar tagiga mevalar, poliz ekinlari tagiga poliz ekinlari, sabzavotlar tagiga esa sabzavotlar nomini yozib qo‘ying.

Mevalar	Poliz ekinlari	Sabzavotlar



6-§. IJTIMOIY FOYDALI MEHNAT

Biz har shanba kuni sinfimizdagi partalarni, stol-stullarni artib, polni yuvamiz. Sinf xonasidagi gullarni parvarish qilamiz, ularning tuvagiga suv quyamiz. Shundan keyin maktab hovlisini supuramiz.

Yuqori sinf o‘quvchilari esa maktab bo‘g‘ida meva va sabzavotlarni terish, xazon, shox-shabbalarni yig‘ish, daraxtlar tagini chopish kabi foydali ishlar bilan shug‘ullanishadi.

Mamlakatimizda kuz va bahor fasllarida va turli bayramlar oldidan umumxalq hasharlari o‘tkaziladi.

Hasharlarda mahallalarning barcha aholisi hamjihatlik bilan ko‘chalarni, ariqlarni tozalashadi, daraxtlarning qurigan shoxlarini qirqishadi.

Hamma ahillik bilan ishlagani uchun ko‘p ishlar bajariladi. Natijada mahallalar yanada obod bo‘ladi.

Bunday ishlar ijtimoiy foydali mehnat deyiladi (14-rasm). «Mehnat, mehnatning tagi rohat» deydi xalqimiz.



14-rasm. *Ijtimoiy foydali mehnat*

Tayanch so‘zlar: ijtimoiy foydali mehnat, umumxalq hashari.



Savollar

1. Shanba kuni darsdan keyin sinfda qanday ishlarni bajarasiz?

2. Maktab hovlisida qanday yumushlarni amalga oshirasiz?
3. Yuqori sinf o‘quvchilari maktab bog‘ida qanday ishlar bilan band bo‘lishadi?
4. Mahallada qanday ijtimoiy foydali ishlar bajariladi?



Topshiriqlar

1. Rasmlarni diqqat bilan ko‘rib chiqing. O‘quvchilar qanday ishlar bilan shug‘ullanayotganini aytib bering.
2. Mehnat haqidagi maqollarni «Ish daftari»ngizga yozib keling.



7-§. KUZDA HAYVONLAR VA HASHAROTLAR HAYOTI


Mamlakatimiz tabiatni xilma-xil bo‘lgani uchun, unda har xil hayvonlar yashaydi. Hayvonlarning qishga tayyorgarligi ham har xil. Cho‘lda toshbaqa, ilon va sichqonlar qishda uyquga ketadi. Tog‘lardagi ko‘p hayvonlar esa pastroqqa, adir va qirlarga tushib qishni o‘tkazadi. Bo‘ri, tulki, kiyik, quyonlar ana shunday hayvonlardir.

Yer yuzida hasharotlarning turi juda ko‘p. Ular, asosan, quruqlikda yashaydi.

Suvda quruqlikdagiga qaraganda hasharotlar kamroq bo‘ladi (15-rasm).

Hasharotlarning foydalilari ham, zararlilari ham bor. Chigirtka ekinlarga, buta va daraxtlarga katta zarar yetkazadi. Chivin, pashsha, burga kabi hasharotlar kasallik tarqatadi.

Lekin foydali hasharotlar ham ko‘p. Asalarilar bol yig‘ayotib olma, nok, shaftoli va boshqa daraxt gullarini changlatadi. Chang-



15-rasm. *Hasharotlar*:

1 – chumoli; 2 – ninachi; 3 – kapalak; 4 – chigirtka.

langan gullar mevaga kiradi. Asalarining asali juda mazali. Ipak qurti esa ipak tay-yorlaydi. Xonqizi zararli qurtlarni yeydi. Chumolilar yerni yumshatib, unumdor bo‘lishiga yordam beradi. Hasharotlar, asosan, to‘da-to‘da bo‘lib yashaydi.

Asalarilar mumdan katakli in qurishadi. Chumolilar esa yerni kovlab uya qurishadi (16-rasm).

Ularning uyalari ko‘p xonali bo‘lib, bir xonada ona chumoli yashaydi. Ozuqalar boshqa xonada, tuxumlari yana boshqa xonada bo‘ladi. Ishlar ham aniq taqsimlanadi. Ona chumoli tuxum qo‘yadi. Ishchi chumolilar oziq-ovqat keltirishadi, ularni tozalashadi, chirindi, po‘choqlarni uyadan tash-qariga chiqarib tashlashadi. Jangchi chumolilar esa ona chumoli, ishchi chumolilar, tuxumlar, uya va yig‘ilgan ozuqalarni qo‘riqlaydi.

Ko‘p hasharotlar qishda uyquga ketishadi. O‘z uyalarida erta bahorgacha uxlashadi. Shuning uchun ular kuzda qishga oziq-ovqat yig‘ishadi.



16-rasm. *Chumoli uyasi*

Tayanch so‘zlar: hayvonlar, hasharot, foydali va zararli hasharotlar, ona chumoli, ishchi, jangchi chumolilar.



Savollar

1. Qanday cho‘l hayvonlarini bilasiz?
2. Qanday tog‘ hayvonlarini bilasiz?
3. Foydali hasharotlardan qaysilarini bilasiz?
4. Qaysi zararli hasharotlarni bilasiz?



Topshiriqlar

1. Chumolilarni kuzating. Ular uyasiga nimalar tashib kelayotganini, uyasidan nimalarni chiqarib tashlayotganini «Ish daftari»ngizga yozib qo‘ying.

2. Chumoli uyasining tashqi ko‘rinishi rasmini ishlang.



8-§. O’LKAMIZDA UCHRAYDIGAN QUSHLAR

Qushlar turli sharoitda yashashga juda yaxshi moslashgan.

Ularning patlari, ichi bo‘sh, g‘ovak suyaklari uzoq vaqt osmonda uchib yurishlariga yordam beradi. Qushlar uzoq joylarga uchib bora oladi.

O‘lkamizda ham turli qushlar bor. Mamlakatimizda jami 410 turdan ortiq qush uchraydi. Ba’zi qushlar suvda yaxshi suzadi. Chunki ularning panjalari orasida parda bor. Qushlarning barchasi suvga yaqinroq joylarga uya qo‘yishadi.

Qushlar hasharotxo‘r, donxo‘r, yirtqich, hammaxo‘r guruhlarga bo‘linadi.

Qushlarning tumshuqlari ular nima bilan oziqlanishiga qarab har xil tuzilgan (17-rasm). Panjasি, tirnoqlari, oyoqlari ham yashash joyi va nima bilan oziqlanishiga qarab farq qiladi.



17-rasm. *Turli qushlar tumshug'i*

Suv qushlarining tumshug'i va oyoqlari uzun bo'ladi. Hammaxo'r qushlarning tumshug'i kalta. O'rdak va g'oz suvda suzuvchi qushlardir (18-rasm).


Yirtqich qushlarning panjalari baquvvat, tirnoqlari ichiga qayrilgan, o'tkir bo'ladi (19-rasm).

Kuzda kunlar sovib, hasharotlar kamayadi. Shu sababli laylak, turna, qaldirg'och, bedana, bulbul va boshqa qushlar issiq o'kalarga uchib ketadi.

Ba'zi qushlar qishda ham uchib ketmaydi.



18-rasm. 1 — g'ozlar; 2 — suvda suzuvchi qushlar panjalari; 3 — o'rdak.



19-rasm. Yirtqich qushlar:
1 — burgut; 2 — ukki.



20-rasm. 1 — *olaqarg'a*; 2 — *qoraqarg'a*.

Ular chumchuq, musicha, kaptar, qoraqush (mayna) va boshqalardir.

O'lkamizga kuzda qarg'alar uchib keldi. Qarg'alar ekinlardan qolgan urug'lar, ko'lmaklarda mayda baliqlar, tuproqdagi qurt-qumursqlar bilan oziqlanadi (20-rasm).

Qushlarning foydasi juda katta. Ular qurt-qumursqlarni, sichqonlarni yeb, kasalliklar tarqalishining oldini oladi. Qushlarni asrash kerak.

Tayanch so'zlar: qushlarning oziqlanishi, hasharotxo'r, donxo'r, yirtqich (go'shtxo'r), hammaxo'r (hamma narsani yeydigan), uchib ketuvchi, uchib keluvchi qushlar.



Savollar

1. O'lkamizda qushlar nima bilan oziqlanadi?
2. Kuzda uchib ketuvchi qushlardan qaysilarini bilasiz?
3. Kuzda qaysi qushlar yurtimizga uchib keladi?
4. Qushlarning qanday foydasi bor?



Topshiriqlar

1. Tevarak-atrofingizdagи qushlarni kuzating.
2. Qaysi qushlar qachon uchib ketishini va qaysi qushlar yurtimizga qachon uchib kelishini «Ish daftari»ngizga yozib qo'ying.



9-§. O'SIMLIKLARNING QISHGA TAYYORLANISHI

O'simliklar uch xil ko'rinishda bo'ladi. Bular o'tlar, butalar va daraxtlar (21-rasm).

Kuz kelib, kunlar soviy boshlashi bilan o'tlar, buta va daraxtlarning barglari sarg'aya boshlaydi.

Bunga sabab shuki, kunlar sovishi tufayli o'simliklar ildizlari orqali yerdan suv bilan birga ozuqalarni ololmay qoladi. Natijada barglari sarg'ayib to'kiladi.



21-rasm. O'tlar, butalar, daraxtlar

Bu — daraxtlarning qishga tayyorgarligini bildiradi. Daraxt va butalar bargining sarg‘ayib to‘kilishi xazonrezgilik deyiladi (22-rasm).

Daraxtlarning sovuqqa chidamliligi har xil bo‘lganligi uchun, ularning bargi hech qachon bir vaqtda to‘kilmaydi.

Eng avval yong‘oq, keyin o‘rik, olcha va behi barglarini to‘kadi.

Kuzda chinor, behi barglari jigarrang tusga kirib to‘kiladi. Zarang, o‘rik barglari sarg‘ayib, qizarib, so‘ng to‘kiladi.

Kuzda daraxtlar bargini to‘kkanida ayrim joylarda barglarni yoqib yuborishadi. Bunday



22-rasm. *Daraxtlarning kuzgi ko‘rinishi*

qilish sira mumkin emas. Chunki xazon yoqilganda tutun havoni ifloslaydi, odam sog‘ligiga yomon ta’sir qiladi.

Daraxtlar barglarini to‘kib bo‘lgandan so‘ng ularning shoxlariga shakl beriladi, tagi chopilib, mahalliy o‘g‘itlar solinadi.

Tayanch so‘zlar: o‘simlik, o‘t, buta, daraxt.



Savollar

1. O‘t, buta, daraxtlar bir-biridan nimasi bilan farq qiladi? Rasmga qarab gapirib bering.
2. Daraxtlarning bargi nega sarg‘ayadi va to‘kiladi?
3. Nima uchun turli daraxtlarning barglari bir vaqtda to‘kilmaydi?
4. Nima uchun barglarni yoqib yubormaslik kerak?



Topshiriqlar

1. Maktabdan har kuni uyga ketayotganingizda daraxtlarni kuzating. Qaysi daraxt bargi qanday rangga kirganini aniqlang.
2. Har xil rangli barglardan bir donadan olib «Ish daftari»ngiz ichiga soling va qaysi daraxt bargi ekanligini yozib qo‘ying.



10-§. GERBARIY TAYYORLASH

(Maktab hovlisida amaliy ish)

Gerbariy — o‘simlikning alohida quritib tayyorlangan namunasi. O‘t, uning ildizi, tanasi, barglari to‘liq olinib, gerbariy tayyorlanadi. Buning uchun bo‘yi 40 sm, eni 30 sm qog‘oz ikki bukланади. Bukланган



23-rasm. *Gerbariy shunday tayyorlanadi*

qog'oz ichiga o't ildizi, tanasi, bargi bilan birga qo'yilib, yelimланади (23-rasm). O'tning nomi, nima uchun kerakligi, qayerda o'sishi va mevasi haqida yozib qo'yiladi.

Gerbariyni kim, qachon, qayerda tayyorlaganini ham yozib qo'yish lozim.

Gerbariydan «Atrofimizdagi olam» darsligining ba'zi mavzulari o'tilayotganda ko'r-gazma sifatida foydalanish mumkin.

Gerbariy o'simliklar haqidagi ma'lumotnomasi hisobланади. O'simliklarni o'rganuvchilar o'sim-

likning o‘zi bo‘lmasa uni gerbariydan o‘rganadilar.

O‘zbekistonda «O‘simlik va hayvonot olami genofondi» institutida bir yarim millionga yaqin gerbariy saqlanadi. Ulardan juda ko‘p o‘simliklarni o‘rganish mumkin.

Tayanch so‘zlar: gerbariy, o‘simlik tanasi, ildizi, mevasi.



Savollar

1. Gerbariy qanday tayyorlanadi?
2. Gerbariy nima uchun kerak?
3. Gerbariyidan qayerda, kimlar foydalanadi?



Topshiriqlar

1. Uyga borgach, hovlingizda va hovlingiz atrofida o‘sadigan o‘simliklardan gerbariy tayyorlang.
2. To‘kilgan barglardan kapalak va ninachi shakllarini applikatsiya yo‘li bilan yasang.



11-§. KASBLAR HAQIDA

Bolalar, odamlar o‘ziga kerakli bo‘lgan narsalarni qayerdan oladilar, degan savolgasiz albatta tabiatdan deb javob berasiz. Ha,

tabiatdan oladi. Lekin tabiatda qanday bo‘lsa shundayligicha olib ishlatavermaydi. Uni qayta ishlaydi, o‘ziga kerakli holga keltiradi. Bunga, masalan, biz yeydigan nonni olib ko‘raylik.

Non tabiatda non holida bo‘lmaydi. Buning uchun dehqonlar yerga bug‘doy eki shadi. Bug‘doy pishganda uni o‘rib olib, yanchib, un qilinadi. Undan nonvoylar xamir qilib, non yopishadi.

Ko‘chalarda g‘izillab yurgan mashinalarni, osmonda uchayotgan samolyotlarni, dengiz va okeanlarda suzayotgan kemalarni ishchihunarmandlar tabiatdan olgan moddalardan yasashgan.

Bolalar, siz o‘qiyotgan kitoblarni ham odamlar yozib, so‘ng kitob chiqaruvchilar stanoklarda bosib chiqarishgan. Siz o‘qiyotgan maktab binosini ham odamlar qurgan.

Biz har kuni yeydigan turli mevalarni ham odamlar — bog‘bonlar yetishtiradi.

Mana shunday biror narsani yetishtirish va biror narsani ishlab chiqarish kasb deyi-

ladi. O‘qituvchilik, tarbiyachilik ham juda kerakli kasblardir.

Odamlar xilma-xil kasblarni egallashadi. Bu bilan hamma odamlar bir-biriga bog‘-lanadi, bir-biriga yordam beradi. Hozirgi vaqtda busiz yashab bo‘lmaydi. Siz ham yaxshi o‘qib, kelajakda odamlarga foydali kasbni egallang.

Tayanch so‘zlar: kasb, dehqon, bog‘bon, nonvoy, ishchi, o‘qituvchi, yozuvchi.



Savollar

1. Odamlar o‘ziga kerakli narsalarni qayerdan oladi?
2. Bug‘doydan non tayyorlash uchun nimalar qilinganadi?
3. Turli xil mevalarni qaysi kasb egalari yetish-tiradi?
4. O‘qituvchi odamlarga qaysi ishi bilan foyda keltiradi?



Topshiriq

Dadangiz, onangiz qanday kasbni egallaganlarini va nima uchun shu kasbni egallaganlarini bilib oling.



ONA ZAMINIMIZ — YER




12-§. YER — SAYYORA

Biz yashaydigan Yer — sayyora. U Qu-yosh atrofida aylanadigan sakkizta sayyoradan biri. Yer juda katta shar ko‘rinishiga ega.

Yer sharining aylanasi 40 ming kilometr. Yerning ichki tuzilishi tuxumning tuzilishiga o‘xshaydi. Yerning yuza qismini qattiq Yer po‘sti qoplagan. Undan pastda qalin, issiq qatlam — mantiya joylashgan. Undan ham chuqurda zich, og‘ir, qizib yotgan yadro (Yer mag‘zi) joylashgan (24-rasm). Yer yuzasidan

Yer markazgacha bo‘lgan masofa o‘rta hisobda olti ming uch yuz oltmisht kilometrga teng.




24-rasm. *Yerning ichki tuzilishi*

Yerni yaxshi o‘rganish uchun uning juda kichraytirilgan shakli — globus yasaladi. Globusda Yer yuzasidagi quruqlik yerlar, dengiz va okeanlar, yirik tekislik va tog‘lar turli ranglar bilan ko‘rsatiladi (25-rasm).

Dunyodagi birinchi globusni bizning bobomiz buyuk olim Abu Rayhon Beruniy bundan ming yil ilgari yasaganlar.

Tayanch so‘zlar: sayyora, Yer po’sti, mantiya, yadro, globus.



25-rasm. 1 — Yerning kosmosdan ko‘rinishi;
2 — globus.



Savollar

1. Yer qanday shaklga ega?
2. Yerning ichki qismi qanday tuzilgan?
3. Globus nima? Unda nimalar tasvirlanadi?
4. Birinchi globusni kim yasagan?




Topshiriq

Yerning kosmosdan ko‘rinishi bilan globusdagi tasvirini taqqoslang. O‘xshash tomonlari va farqlarini aniqlang.



13-§. YERNING HARAKATLARI

Yer boshqa sayyoralar kabi Quyosh atrofida aylanadi. Yer Quyosh atrofida uch yuz olt-mish besh kunda bir marta to‘liq aylanib chiqadi (26-rasm).



26-rasm. *Yerning Quyosh, Oyning Yer atrofida aylanishi*

Bu vaqt ni biz 1 yil deymiz.

Bundan tashqari u o‘z o‘qi atrofida ham aylanadi. Yer o‘z o‘qi atrofida bir kecha-kunduzda, ya’ni 24 soatda bir marta aylanib chiqadi.

Bunda kecha va kunduz almashinadi. Bir kecha-kunduz sutka deb ataladi.

Oyni hammangiz ko‘rgansiz. Oy — Yerning tabiiy yo‘ldoshi. U Yer atrofida aylanadi (26-rasm). Yer Quyosh atrofida bir marta aylanib chiqqinicha Oy Yer atrofida 12 marta



27-rasm. *Quyosh*



28-rasm. *Oy*

aylanadi. Shuning uchun yil 12 oyga bo‘linadi. Oyning Quyoshdan farqli tomoni shundaki, u o‘zi nur sochmaydi. Quyoshdan kelgan nurni qaytaradi (27- va 28-rasmlar).

Uning bir tomonini Quyosh nuri yoritadi. Ikkinchisi tomoni qorong‘i bo‘lib, bizga ko‘rinmaydi. Shuning uchun Oy bizga har xil ko‘rinadi.

Tayanch so‘zlar: Yer, Oy, Quyosh, yil.



Savollar

1. Yer Quyosh atrofida necha kunda 1 marta aylanib chiqadi?

2. Yer o‘z o‘qi atrofida aylanganda qanday hodisa ro‘y beradi?
3. Oy bizga nega har xil ko‘rinadi?



Topshiriq

Oyning har xil ko‘rinishini kuzatib boring va qaysi kuni qanday ko‘ringanini «Ish daftari»ngizga yozib qo‘ying.




14-§. VAQT O‘LCHOV BIRLIKLARI

Vaqt hisobiga Yerning o‘z o‘qi atrofida va Quyosh atrofida aylanishi asos qilib olin-gan.

Yer o‘z o‘qi atrofida bir marta aylanib chiqishiga ketgan vaqt sutka deb ataladi.

Yerning Quyosh atrofida bir marta aylanib chiqishi uchun ketgan vaqt 1 yil deb ataladi. 1 yil 12 oyga, har bir oy haftalar-ga bo‘linadi. Har bir haftada 7 kun bor (29-rasm). Har bir oyning o‘z nomi bor.

Bir kecha-kunduz, ya’ni bir sutka 24 soatga bo‘linadi. Har bir sutka yarim kechada, ya’ni soat 24 dan keyin boshlana-di. Vaqt ni aniq belgilash uchun har bir soat 60 daqiqa (minut)ga bo‘linadi. Har bir



Dushanba
Seshanba
Chorshanba
Payshanba
Juma
Shanba
Yakshanba

29-rasm. *Yil, fasllar va oylar, hafta kunlari*

daqiqa, o‘z navbatida, 60 soniya (sekund)ga bo‘linadi.

Vaqtni aniqlash, belgilash tartibi sana deyiladi.

Tayanch so‘zlar: yil, fasl, oy, hafta, kun, sutka, soat, daqiqa, soniya, sana.



Savollar

1. Vaqt hisobiga nima asos qilib olingan?

2. Bir haftada necha kun bor? Hafta kunlari qanday ataladi?
3. Bir yil necha oydan iborat? Ular qanday nomlanadi?
4. Sutka deb qancha vaqtga aytamiz?



Topshiriqlar

1. Har biringiz qaysi yili, qaysi oy, qaysi kun va qay vaqtida tug'ilganingizni ota-onangizdan so'rab bilib oling.
2. Mamlakatimizda qanday bayramlar qaysi oy, qaysi kunda bo'lishini bilib, «Ish daftari»ngizga yozib qo'ying.



15-§. YER YUZASINING TUZILISHI

Yer juda katta shar shakliga ega ekanini bilasiz. Juda katta bo'lganligi uchun ham uning yuzasi bizga tekis bo'lib ko'rinadi. Biroq Yer yuzasi hamma joyda har xildir. Yer yuzida minglab kilometrga cho'zilib ketgan tog'lar, tekisliklar, suvli, suvsiz joylar bor (30-rasm).

Bizning Vatanimiz — O'zbekistonning yer yuzasi ham bir xil emas. Uning sharq — kunchiqar tomonida baland, qorli tog'lar, katta, keng vodiylar bor.



1



2



3



4

30-rasm. Yer yuzasining tuzilishi:

1 — tog‘; 2 — tekislik; 3 — suv; 4 — cho‘l.

Mamlakatimizning g‘arb — kunbotar tomonida cho‘ldan iborat tekisliklar, usti yassi qirlar, past tog‘lar joylashgan.

Tog‘ va vodiylarda yoz ancha salqin bo‘ladi, qor va yomg‘ir ham ko‘proq yog‘adi. Daraxt, buta va o‘tlar qalin o‘sadi. Cho‘llarda yomg‘ir, qor kam yog‘adi, yoz issiq bo‘ladi. Siyrak o‘t va butalar o‘sadi. Ko‘p joylarni qumlar qoplab yotadi.

Har bir tog‘, tekislik va qirning o‘z nomi bor. Sharqdagi tog‘lar Tyanshan, Turkiston va Hisor tog‘lari deb ataladi. Ularning cho‘qqilari yozda ham qor va muzliklar bilan qoplanib yotadi.

Mamlakatimizdagi eng katta tekislik Turon pasttekisligidir. Uning katta qismini Qizilqum cho‘li egallagan. Cho‘l tekisliklar va keng vodiylarga xalqimiz suv chiqarib ekinzorlar, bog‘lar bunyod etgan.

Tayanch so‘zlar: tog‘, tekislik, qir, pasttekislik, sharq, g‘arb, cho‘l.



Savollar

1. Tog‘larda yer yuzasi qanday ko‘rinishda bo‘ladi?

2. Tekislikda odamlar ko‘proq qanday ishlar bilan shug‘ullanishadi?
3. O‘zbekistonda joylashgan qaysi tog‘ va tekisliklarni bilasiz?



Topshiriqlar

1. Siz yashaydigan joyda yer yuzasi qanday: tog‘likmi, tekislikmi? O‘rganib kelng.
2. O‘zingiz yashaydigan joydagи hayvonlar, ekinlar va mevali daraxtlar nomini «Ish daftari»ngizga yozib qo‘ying.



16-§. SUV — HAYOT MANBAYI

Suvni tabiat mo‘jizasi deyish mumkin. «Suv bor joyda hayat bor», deydilar. Haqiqatan ham shunday (31-rasm).

Yer yuzida suv juda ko‘p. Yer yuzida quruqlikka nisbatan suv bilan qoplangan joylar ko‘proq. Yer yuzining uchdan ikki qismidan ko‘prog‘ini suv qoplagan. Lekin bu suv sho‘r, uni ichib bo‘lmaydi.

Biroq Yer yuzida suv juda kam bo‘lgan cho‘llar ham bor.

Vatanimiz — O‘zbekistonning ham yaridan ko‘proq hududi cho‘llardan iborat.

Suv ariq va daryolarda oqadi, ko'l, den-giz hamda okeanlarda bo'ladi.

Muz holatidagi suv sovuq o'lkalarda Yer yuzini qoplab yotadi.

Baland tog'lardagi qorlar bahorda va yozda erib, irmoq holida daryolarga quyiladi. Dengiz va okean suvlarining yuzalari



31-rasm. *Suv bor joyda hayot bor*

Quyosh nuri ta'sirida isib, bug‘ga aylanib, havoga ko‘tariladi.

Keyin bulutga aylanadi, bulutdan yomg‘ir yoki qor bo‘lib yana yerga yog‘adi.

Qish faslida tog‘larga yoqqan qor bahor va yozda erib, daryo, soy va ariqlarga oqib tushadi. Biz bu suvni ichamiz, ekinlarni sug‘oramiz.

Ota-bobolarimiz suvni tejab-tergab ishlatganlar. Suvdan unumli foydalanib, bog‘lar, ekinzorlar bunyod etishgan.

Biz ham suvni iflos qilmay, tejab, unumli foydalanishimiz zarur.

Tayanch so‘zlar: dengiz, daryo, soy, ko‘l, ariq, suv, qor, muz, bug‘.



Savollar

1. Siz yashaydigan joyda qanday daryo, ko‘l, soy va ariqlar bor?
2. Siz suvdan qanday foydalanasiz?
3. Daryolarga suv qayerlardan oqib keladi?



Topshiriq

Siz yashaydigan joyda suv nimalarga sarflanishini «Ish daftari»ngizga yozib qo‘ying.



17-§. 1-yarim yilda olgan bilimingizni tekshirib ko‘rish uchun testlar

- 1. Atrofimizdagи olam nima?**
A) Osmon.
B) Yer.
C) Quyosh va Oy.
D) Biz atrofimizda ko‘rib turgan hamma narsa.
- 2. Odamning nechta sezgi a’zosi bor?**
A) Ikkita.
B) Uchta.
C) To‘rtta.
D) Beshta.
- 3. Suv tabiatda necha holatda uchraydi?**
A) Uch holatda.
B) To‘rt holatda.
C) Bir holatda.
D) Besh holatda.
- 4. Ob-havo deb nimaga aytildi?**
A) Yomg‘ir yog‘ishiga.
B) Qor yog‘ishiga.
C) Sovuq havoga.
D) Havoning qisqa vaqtdagi holatiga.
- 5. Termometr nima?**
A) Havo, suv, tana haroratini o‘lchaydigan asbob.
B) Yerda uzunlikni o‘lchaydigan asbob.
C) Og‘irlilikni o‘lchaydigan asbob.
D) Metrlarga bo‘lingan asbob.

6. Yil fasllarining almashinishi nimaga bog‘liq?

- A) Kunning issiq yoki sovuq bo‘lishiga.
- B) Shamollarga.
- C) Quyoshga bog‘liq.
- D) Yog‘inning ko‘p yoki oz yog‘ishiga.

7. Kuz qanday fasl?

- A) Kuz hosil yig‘iladigan fasl.
- B) Shirin-shakar mevalar pishadigan fasl.
- C) Paxta ochiladigan fasl.
- D) Hamma javoblar to‘g‘ri.

8. Hashar nima?

- A) Aholining ko‘pchilik bo‘lib ishni bajarishi.
- B) Hamma o‘z ishini bajarishi.
- C) Bolalarning bir-biriga yordam berishi.
- D) Bolalarning birgalikda o‘ynab yurishi.

9. Quyidagilardan foydali hasharotlarni belgilang.

- A) Asalari, xonqizi.
- B) Chigirtka.
- C) Kapalak.
- D) Ninachi.

10. Asalarining qanday foydasi bor?

- A) Bahorda guldan gulga uchib yuradi.
- B) Gullagan mevalarni changlatadi.
- C) Hech qanday foydasi yo‘q.
- D) Odamlarni chaqadi.

11. Qushlar necha guruhga bo‘linadi?

- A) 2 guruhga.

- B) 3 guruhga.
- C) 4 guruhga.
- D) Guruhlarga bo‘linmaydi.

12. Nima uchun bir yil uch yuz oltmis besh kun deb olingan?

- A) Bir yil to‘rt fasl bo‘lgani uchun.
- B) Oy Yer atrofida aylangani uchun.
- C) Bir yil 12 oy bo‘lgani uchun.
- D) Yer Quyosh atrofida uch yuz oltmis besh kunda bir marta aylangani uchun.

13. Oy bizga nega har xil bo‘lib ko‘rinadi?

- A) Oy o‘zi nur sochmagani uchun.
- B) Biz Oyning Quyosh yoritgan qismini ko‘rganimiz uchun.
- C) Oyning o‘zi shunday har xil bo‘lgani uchun.
- D) Oyning qorong“ida ko‘ringani uchun.

14. Bir hafta necha kun?

- A) 5 kun.
- B) 6 kun.
- C) 7 kun.
- D) 8 kun.

15. Mamlakatimizning qaysi tomonida tog‘lar bor?

- A) G‘arb tomonida.
- B) Sharq tomonida.
- C) Janubida.
- D) Shimolida.

O'LKAMIZDA QISH



18-§. QISH

Dekabr, yanvar va fevral qish oylaridir. 22-dekabrdan Quyosh osmonda ufqqa eng yaqin bo‘ladi. Bu kun Quyoshning qishki turish kuni deyiladi.

Qishda havo ko‘pincha bulut bo‘ladi. Quyosh nurlari qiya tushib, yerni yaxshi isitmaydi. Tez-tez qor yog‘adi.

Tog‘lar baland va sovuqroq bo‘lgani uchun qor ko‘p yog‘adi, bahor va yozgacha erimay yig‘ilib qoladi. Shu sababli bahor va yozda daryo va soylarda suv ko‘p bo‘ladi.



32-rasm. *Qish zavqi*

Tekisliklarda ham ba'zan kunlar sovib, havo harorati 0°C dan ham pasayib ketadi, izg'irin shamollar esadi, yer yuzini qor qoplaydi, daryo, ko'l va anhor suvlari muzlaydi (32-rasm).

Qishda qor ko'p yog'sa, yozda suv mo'l bo'ladi. Qish faslida har doim ham qattiq sovuq bo'lavermaydi. Quyoshli iliq kunlar ham bo'ladi.

Tayanch so'zlar: qish, dekabr, yanvar, fevral, ufq, daryo, soy.



Savollar

1. Qaysi oylarni qish oylari deymiz?
2. Qishda ob-havo qanday bo‘ladi?
3. Nima uchun tog‘larda qishda qor yig“ilib qoladi?



Topshiriq

Qishki ta’til kunlari siz yashaydigan joyda ob-havo qanday bo‘lganini «Ish daftari»ngizga yozib qo‘ying.



19-§. QISHGI MEHNAT

Shaharlarda yashaydigan aholi bilan qishloqlarda yashaydigan aholining qishdagи mehnatlari bir-biridan farq qiladi.

Shaharlarda kishilar turli korxonalar, ustaxonalar, qurilishlarda ishlashadi.

Qishda qalin qor yoqqan kunlari ko‘cha, hovli, maydonlarni qor va muzdan tozalaydilar.

Qishloq joylarda esa dala ishlari biroz kamayadi, biroq issiqxonalarda turli meva va sabzavotlar, har xil ko‘katlar yetishtiriladi. Bahorda erta ekish uchun issiqxonalarda yana bodring, pomidor, karam va har xil gul-

larning ko‘chatlari parvarish qilinadi (33-rasm).



33-rasm. Issiqxonada ko‘chat parvarishi

Kishilar uy hayvonlarini uylari va ferma-larda boqishadi (34-rasm).



34-rasm. Uy hayvonlari qishda xonalarda boqiladi

Dehqonlar dalalarga mahalliy o‘g‘it solishadi. Tuprog‘i sho‘r yerkarning sho‘ri yuviladi.

Kanallar, ariqlar tozalanadi.

Qishloq mehnatkashlari qishda chigit ekan-digan traktorlar va boshqa mashinalarni bahorgi ekish ishlariga tayyorlaydilar.

Tayanch so‘zlar: korxona, ustaxona, issiqxona, ferma, dehqon.



Savollar

1. Shaharlarda yashaydigan aholi qishda qayerlarda ishlaydi?
2. Dehqonlar qishda qanday ishlarni bajarishtadi?
3. Issiqxonalarda nimalar yetishtiriladi?



Topshiriq

1. Siz yashaydigan joyda issiqxona bo‘lsa, unda qanday o‘simgiliklar yetishtirilishini kuzating. Ular nomini «Ish daftari»ngizga yozib qo‘ying.
2. Siz yashaydigan joydagi korxonada nimalar ishlab chiqarilishini «Ish daftari»ngizga yozib qo‘ying.




20-§. UY HAYVONLARINING QISHDAGI HAYOTI

Qadim zamonalarda hamma hayvonlar yovvoyi holda yashagan.

Kishilar ayrim hayvonlarni asta-sekin qo‘lga o‘rgatib, xonakilashtirgan. Yovvoyi hayvonlarning qunduz, bug‘u kabi ayrim turlari endilikda qo‘lga o‘rgatilib, molxonalarda boqilmoqda.

Ot, sigir, tuya, qo‘y, echki (35-rasm); parrandalardan — tovuq, o‘rdak, g‘oz, kurka va sayroqi qushlar qishda odamlarning



35-rasm. *Uy hayvonlari:*
1 — sigir; 2 — ot; 3 — echki.

uylarida maxsus xonalarda hamda fermalarda boqiladi.

Ular uchun yozda va kuzda ozuqa — pichan, don, yem tayyorlab qo‘yiladi.

Xonaki hayvonlar va parrandalar boqiladigan fermalar va maxsus xonalar qishda isitiladi, vaqtida tozalanib, shamollatib turiladi.

Katta fermalarda ko‘p ishlar avtomatlashtirilgan. Parranda va chorva mollarining sog‘ligiga mol shifokorlari — veterinarlar qarab turishadi. Chorva mollari va parrandalarga vaqt-i-vaqti bilan dori-darmonlar berib turiladi.

Tayanch so‘zlar: uy hayvonlari, fermalar, veterinar, dori-darmon.



Savollar

1. Siz o‘zingiz uyda qanday hayvonlarni boqasiz? Ularni uyda boqishingizdan maqsad nima?
2. Siz yashaydigan joyda qanday uy hayvonlari boqiladi?
3. Siz yashaydigan joyda qanday hayvonlar boqiladigan fermalar bor?



Topshiriq

Siz yashaydigan joyda qanday uy hayvonlari va parrandalar borligini aniqlang va ular nomlarini «Ish daftarin»gizga yozib qo‘ying.



21-§. YOVVOYI HAYVONLARNING QISHDAGI HAYOTI

Yovvoyi hayvonlarga qishda ancha qiyin bo‘ladi. Sovuq kunlarda ular oziq izlashga majbur bo‘ladilar.

Shuning uchun ular yoz va kuz oylarida semirib, tanasida ko‘proq yog‘ to‘playdi. Yerni qalin qor qoplagan vaqtda ayiq kabi ayrim hayvonlar yerosti uyalarida uyquga ketishadi (36-rasm).

Ilonlar, qurbaqalar, tipratikanlar, toshbaqalar, chumolilar, ba’zi bir hasharotlar ham qishda uxlaydi. Bahorda kunlar isishi bilan ular uyg‘onadilar va ozuqa izlab, hayot tarzini davom ettiradilar.

Turna, laylak, bulbul, qaldirg‘och, yovvoyi o‘rdak kabi ba’zi qushlar kuzda issiq o‘lkalarga uchib ketadi.



1



2



3

36-rasm. Yovvoyi hayvonlar:

1 — ayiq va ayiqchalar; 2 — tulki; 3 — bug‘u.

Chumchuq, musicha, kaptar, afg‘on may-nasi kabi qushlar qishda ham uchib ket-

maydi, ular bizning qishimizga o‘rganib qolgan.

Bunday qushlar odamlar uylariga yaqinroq joylarda yashaydi. Ular chiqindi ozuqalarni terib yeb, kun ko‘rishadi.

Tayanch so‘zlar: yovvoyi hayvonlar, issiq o‘lkalar, chiqindi ozuqa.



Savollar

1. Siz yashaydigan joyda qaysi qushlar kuzda uchib ketib, bahorda qaytib keladi?
2. Siz o‘zingiz uyda qanday hayvonlarni boqasiz? Ularni boqishingizdan maqsad nima?
3. Siz yashaydigan joyda qanday yovvoyi hayvonlar bor. Ular qishda nimalar bilan oziqlanadi?



Topshiriq

Yashash joyingizda qanday yovvoyi hayvonlar borligini kattalardan so‘rab bilib oling va «Ish daftari»ngizga nomlarini yozib qo‘ying.



O'LKAMIZDA BAHOR



22-§. BAHORDA O'SIMLIKLER HAYOTI

Bizning mamlakatimiz — O'zbekistonda bahor ertaroq-fevral oyining o'rtalaridan boshlanadi.

Bahorda Quyosh tobora baland ko'tarilib, havo, yer isiy boshlaydi. Tez-tez yomg'ir yog'adi, yer nam bo'ladi. Bu nam ob-havo sharoiti erta unib chiqib, gullaydigan o'simliklar uchun juda qulay.

Eng oldin boychechak, binafsha, lolaqizg‘aldoq, keyin lola ochiladi (37-rasm).



37-rasm. *Bahor gullari*:
1 — *boychechak*; 2 — *lolaqizg‘aldoq*.

Kunlar isib borgan sari daraxtlar tanasi-ga yerdan suv bilan birga ozuqalar ko‘tariladi.

Kurtaklar bo‘rtib kattalashadi, so‘ngra gullaydi. Eng oldin bodom gullaydi va barg chiqaradi. Keyin shaftoli, o‘rik, nok, gilos, olcha, olma gullay boshlaydi (38-rasm).

Eng oxiri behi gullaydi. Ko‘pchilik daraxtlar oldin gullab, so‘ng barg yozadi. Behi esa oldin barg chiqarib, keyin gullaydi.

Bu faslda tabiat butunlay yangilanadi. Kuzda uchib ketgan qushlar yana Vatanimizga qaytib keladi.

Bahorda ba’zan havo birdan sovib ketadigan kunlar ham bo‘ladi. Birdan tushadigan qattiq sovuqni «Qora sovuq» deyishadi.



38-rasm. *Gullagan o‘rik daraxtlari*

«Qora sovuq» juda xavfli, u mevali daraxt-larning gulini, dalalarga ekilgan ekinlarni qoraytirib ketadi.

Bog'bonlar «Qora sovuq»da mevali daraxt-larning gullari va endigina tukkan mevalarini sovuq urib ketmasligi uchun mevali bog'-larning shamol keladigan tomoniga gulxanlar yoqishadi. Shu yo'l bilan ular daraxtlarni sovuq urib ketishidan asrashadi.

Tayanch so'zlar: boychechak, binafsha, lolaqizg'aldoq, lola, mevali daraxtlar, «Qora sovuq».



Savollar

1. Eng oldin qaysi gullar ochiladi?
2. Qaysi daraxtlar oldin gullab, keyin barg chi-qaradi?
3. Qaysi daraxt oldin barg yozib, so'ng gullaydi?
4. «Qora sovuq» qanday sovuq?



Topshiriq


Maktabga boradigan yo'lingizda uchraydigan daraxtlarni kuzating. Qaysi daraxtlar avval gullaganini, qaysilari birinchi bo'lib barg yoza boshlaganini aniqlab, «Ish daftari»ngizga yozib qo'ying.



23-§. O‘SIMLIKLAR QANDAY KO‘PAYTIRILADI?

Hovli, dala, gulzor va bog‘larda o‘sadigan o‘tlar, daraxtlar, butalar va gullar o‘simlik deyiladi. Ularning eng muhim xususiyatlaridan biri havoni tozalab turishidir (39-rasm).

Biz shirin-shakar mevalarni maza qilib yeymiz. Ular vitaminlarga juda boy.




39-rasm. O‘simliklar havodagi karbonat angidridini yutib, inson uchun zarur bo‘lgan kislorodni chiqaradi

Chiroyli gullar esa odamni o‘ziga tortadi.
Ko‘nglini ko‘taradi.

Ko‘pchilik ekinlar urug‘idan ko‘paytiriladi. Paxtaning chigit, qovun, tarvuz, handalak, qovoq, sabzi, piyozning urug‘i ekiladi (40-rasm).

Pomidor, qalampir va karam ham urug‘idan ko‘paytirilib, keyin ko‘chat qilinadi. Kartoshka esa tugunagidan ko‘paytiriladi.


O‘rik, yong‘oq, shaftolining danagi ekiladi. Anor, anjir, tokning novdasi ekib qo‘yilsa, ko‘karib ketadi. Tol, terak ham novdadani ko‘karadi.



40-rasm. *Urug‘idan ko‘paytiriladigan ekinlar:*

1 — paxta; 2 — tarvuz; 3 — sabzi.

Ayrim mevali daraxtlar yaxshi hosil beradigan navlarga payvand qilinadi. Ko‘pincha olma, nok, gilos, o‘rik, shaftoli payvand qilinib ko‘paytiriladi. Payvand ikki xil bo‘ladi — kurtak payvand va iskana payvand (41-rasm).



41-rasm. O‘simliklarni payvand qilish

Tayanch so‘zlar: o‘simlik, urug“, danak, chigit, novda, payvand, ko‘chat.



Savollar

1. O‘simliklarning qanday foydasi bor?
2. Qaysi ekinlar urug“idan ekib ko‘paytiriladi?
3. Qaysi mevalarning danagi ekiladi?
4. Mevali daraxtlar nima uchun payvand qilinadi?



Topshiriq

Ikkita idish oling. Ularga suv quying. Biriga kattalar yordamida xona gullari shoxlaridan qirqib olib, solib qo‘ying. Ikkinchisiga o‘rik va tol shoxchalaridan soling. Ularni 2 hafta kuzating. Shoxchalardan ildiz chiqsa, ular novdasidan, ildiz chiqmasa, danagidan yoki urug‘idan ko‘paytirilishini bilib olasiz.



24-§. BAHORGİ MEHNAT

Bahorda dehqonlarning yumushlari ko‘payadi. Dehqonlar yerni haydab, og‘itlar solib, ekin ekishga tayyorlashadi. Avval chigit, keyin makkajo‘xori, kartoshka, piyoz, qovun, tarvuz ekiladi.

Hozirgi vaqtida qovun, tarvuz va bording plyonka tagiga va issiqxonalarga ham ekilmoqda. Bunda ekin tez yetiladi.

Pomidor, karam, garmdori ko‘chatlari ham issiqxonalarda o‘sтирilib, so‘ng dala-larga o‘tqaziladi. Bahor kelishi bilan bog‘bonlarning ishi ko‘p bo‘ladi.

Daraxtlar butalanadi, tagi tozalanadi va chopiladi (42-rasm). So‘ng zararli hasharot-

larga qarshi dori sepiladi. Shaharlar va qishloqlarda manzarali va mevali daraxt ko‘chatlari o‘tqaziladi. Ariq va gulzorlar tozalanadi. Gullar ekiladi.

Daraxtlar, gul ko‘chatlarining tagi yumshatiladi. Daraxtlarning tanalari ohak bilan oqlanadi. Bu ishda o‘quvchilar ham faol qatnashadilar.



42-rasm.

*Daraxtlar tagini
yumshatish*

Tayanch so‘zlar: bog‘bon, manzarali va mevali daraxtlar, ohak.



Savollar

1. Dehqonlar bahorda qanday ishlarni bajarishadi?
2. Bog‘bonlar daraxtlarni qanday parvarish qilishadi?
3. Shahar va qishloqlarda bahorda qanday ishlar qilinadi?



Topshiriq


Maktab hovlisi va hovlingizda ekilgan gullar hamda ko‘chatlarni kuzatib, parvarish qilib turing.



25-§. BAHORDA HASHAROTLAR HAYOTI

Daraxtlarning po'stlog'i ostida, tana-sidagi kovaklarda, tuproq orasida qish bo'yi uxlab yotgan hasharotlar bahorda uyg'onadi.

Ayniqsa, asalari, sariqari, har xil kapa-laklar, xonqizi, ninachi, pashshalar, chivin-lar g'imirlab qoladi. Katta-kichik chumol-lilar paydo bo'ladi (43-rasm). Ular yer qa-zib, uya qurishadi.




43-rasm. *Bahorda paydo bo'ladigan hasharotlar:*

- 1 — *ninachi*; 2 — *shira*; 3 — *sariqari*;
4 — *xonqizi*; 5 — *asalari*.

Hasharotlar ikki guruhga — foydali hasharot va zararli hasharotlarga ajratiladi. Asalarilar, sariqarilar gullarni changlatadi. Mo'l hosil olishga yordam beradi.

Chumolilar tuproqni yumshatib, unumdor qiladi (44-rasm).




44-rasm. *Chumolilar*.

May qo'ng'izi, pashsha, ko'sak qurti va chivinlar zararli.

Qo'ng'izlarning may oyida uchib chiqadigan bir turi may qo'ng'izi deb ataladi (45-rasm).

Bu qo'ng'iz tuxumini tuproqqa ko'mib qo'yadi. Bahorda tuxumidan qurt (buzoqboshi) paydo bo'ladi. U o'sib qo'ng'izga aylanadi.



45-rasm. Zararli hasharotlar:

1 — ko'sak qurti; 2 — o'rgimchakkana; 3 — may qo'ng'izi; a — tuxumi, b — qurti, d — g'umbagi.

Qo'ng'iz daraxt bargi va mevasi bilan oziqlanadi.

Tuxumdan paydo bo'lgan buzoqboshi o'simlik ildizini yeb, uni quritadi.

Zararli hasharotlarni yo'qotishda hasharotxo'r qushlarning foydasi katta.

Shuning uchun biz foydali hasharotlarning, qushlarning ko'payishiga yordam berishimiz, ularni muhofaza qilishimiz kerak.

Tayanch so‘zlar: asalari, sariqari, chumolilar, may qo‘ng‘izi, buzoqboshi.



Savollar

1. Qish uyqusiga ketgan hasharotlar qachon uyg‘onadi?
2. O‘zingiz yashaydigan joyda uchraydigan qanday hasharotlarni bilasiz?
3. Qaysi hasharotlar foydali, ularning qanday foydasi bor?
4. Qaysi hasharotlar zararli, ularning qanday zarari bor?



Topshiriq

O‘zingiz yashaydigan joyda uchraydigan hasharotlar nomini «Ish daftari»ngizga yozib qo‘ying.



26-§. NAVRO‘Z — YANGI KUN

21-mart kuni kechasi bilan kunduzi teng bo‘ladi. Quyosh shu kundan boshlab baland ko‘tarilib, kun tundan uzaya boshlaydi.

Mamlakatimizda har yili 21-mart kuni Navro‘z bayrami nishonlanadi. Bu yangi yil, yangi kun bayramidir.

Xalqimiz Navro‘z bayramini qadim zamonlardan buyon nishonlab kelgan. Navro‘zda turli

vitaminlarga boy ovqatlar, halim, sumalak va ko‘k somsa pishiriladi (46-rasm).

Navro‘z bayrami oldidan umumxalq ha-shari o‘tkazilib, ariqlar, ko‘chalar, maydon-lar, hovlilar tozalanib tartibga solinadi. May-



46-rasm. *Bahorning tansiq taomi — sumalak pishirish*

donlarga, ko‘chalar chetiga daraxtlar, gullar ekiladi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin Navro‘z bayramimiz qayta tiklandi. Butun mamlakatimizda Navro‘z bayrami keng nishonlanadigan bo‘ldi.



47-rasm. *Navro‘z shodiyonalari*

Tayanch so‘zlar: Navro‘z bayrami, sumalak, halim, ko‘k somsa, hashar.



Savollar

1. Bahorda tabiatda qanday o‘zgarishlar ro‘y beradi?
2. Navro‘z qachon kirib keladi?
3. Navro‘z qanday bayram?



Topshiriq

Mahallangizda Navro‘z bayrami qanday nishonlanganini «Ish daftari»ngizga yozib keling.



27-§. BAHORDA O'LKAMIZGA UCHIB KELADIGAN QUSHLAR

Bahorda kunlar isib, hasharotlar uyg‘onishi bilan kuzda uchib ketgan qushlar o‘lkamizga yana qaytib kela boshlaydi. Birinchi bo‘lib jiblajibon bilan qaldirg‘och uchib keladi (48-rasm).



48-rasm. *Qushlar:*
1 — *qaldirg‘och*; 2 — *bulbul*.

Bu ikkala qush kichkina, chiroyli va harakatchan. Ular faqat mayda hasharotlar,

pashsha va chivinlar bilan oziqlanib, odamlarga foyda keltiradi.

Foydali va yoqimli sayrovchi qushlardan yana biri — bulbuldir.

Bulbul yurtimizga aprel oyining oxiri, may oyining boshlarida uchib keladi. U ham faqat hasharotlar bilan oziqlanadi.

May oyining oxiri va iyun oyining boshlarida 4—5 tadan tuxum qo'yadi. Tuxumlaridan 13—14 kunda jo'ja ochadi. Jo'jasini 15 kundan keyin uchirma qiladi.



49-rasm. *Laylak* va *turna*

Bahorda o'lkamizga katta qushlardan laylak va turnalar ham uchib keladi. Ular uzun oyoqli va uzun tumshuqli qushlardir (49-rasm).

Bu qushlar ko'llar, daryolar, botqoqliklar yaqiniga in qo'yadi. Ular kemiruvchi hayvonlar, ilon, baliqlar bilan oziqlanadi.

Qushlarning hammasi foydali. Shuning uchun ham biz qushlarni muhofaza qilishimiz, inlarini buzmasligimiz, tuxumlari va palaponlariga tegmasligimiz kerak.

Tayanch so'zlar: jiblajibon, qaldirg'och, bulbul, laylak, palapon, qushlarni muhofaza qilish.



Savollar

1. Bahorda o'lkamizga birinchi bo'lib qaysi qushlar uchib keladi?
2. Qaldirg'och qanday qush?
3. Bulbul o'lkamizga qachon uchib keladi?
4. Laylak va turnalar qayerlarga in quradi, nimalar bilan oziqlanadi?




Topshiriq

Siz yashaydigan joyda bahorda qaysi qushlar qachon uchib kelganligini «Ish daftari»ngizga yozib keling.



28-§. O'LKAMIZDAGI YOVVOYI VA UY HAYVONLARI

Hozirgi vaqtida ko‘p hayvonlar va qushlar odamlarga o‘rgangan. Odamlar ularni boqib, ko‘paytirishadi. Ot, tuya, sigir, qo‘y, echki, quyon, tovuq, xo‘rozlar, it va mushuklar uy hayvonlaridir (50-rasm). Ot,



50-rasm. *Parrandalar va uy hayvonlari:*

- 1 — xo‘roz va tovuqlar;
- 2 — echki;
- 3 — it;
- 4 — tuya.

tuyalardan asosan yuk tashishda foydalani-ladi.


Sigir, qo'y, echki go'shti, terisi, suti uchun, quyonlar terisi, go'shti uchun bo-qiladi.

Tovuq, o'rdak, g'oz, kurka go'shti, tu-xumi va pati uchun boqiladi.

Bedana, to'ti, kaptarlar chiroyliligi va yoqimli sayrashi uchun boqib ko'paytiriladi.

Yovvoyi hayvonlar uy hayvonlaridan farq qilib, ozuqani o'zlari qidirib topib yeydi (51-rasm).

Ular tog'larda, daryolar bo'yida, jarlarda, qamishzor, chakalakzorlarda, cho'llarda yashab, kovaklarga, g'orlarga kirib yotadi.



1



2

51-rasm. Yovvoyi hayvonlar:
1 — kiyik; 2 — echkemar.

Yovvoyi hayvonlar ham insonlar uchun juda foydali. Ilonlar zaharidan turli dori-darmonlar tayyorlanadi.

Shuning uchun yovvoyi hayvonlarni ham qirilib ketishidan asrashimiz kerak.

Tayanch so‘zlar: dori-darmon, ilon zahari, hayvonlarni muhofaza qilish.



Savollar

1. Odamlar uy hayvonlarini nima uchun boqishadi?
2. Yovvoyi hayvonlar qanday hayot kechirishadi?
3. Yovvoyi hayvonlarning qanday foydasi bor?
4. Siz uyingizda qaysi uy va yovvoyi hayvonlarni boqasiz?



Topshiriq

Yashayotgan joyingizda uchraydigan uy hayvonlari, qushlar, yovvoyi hayvonlar nomini aniqlab, «Ish daftari»ngizga yozib qo‘ying.



29-§. INSON VA TABIAT

Atrofimizdagi barcha narsa — Quyosh, Oy, yulduzlar, havo, bulut, suv, tog‘lar, tekisliklar, o‘simgiliklar, hayvonlar — bular-

ning hammasi birgalikda tabiat deyiladi (52-rasm).

Odam ham shu tabiatda yashaydi. O‘ziga kerakli barcha narsani tabiatdan oladi.


Tabiat juda boy. Biz o‘zimizga kerakli neft, ko‘mir, gaz, temir va boshqalarni yerdan qazib olamiz. Keng dalalarga har xil ekinlar ekib, hosilini iste’mol qilamiz.

Mevali bog‘lar bunyod etamiz. Dala, qir, tog‘larda sigir, qo‘y, echkilarni boqamiz. Shunday ekan, biz tabiatni asrashimiz, unga g‘amxo‘rlik qilishimiz kerak.

Bizlar har xil korxonalar qurib, ularda tabiat boyliklaridan o‘zimizga kerakli oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak, turli ma-



52-rasm. *Tabiat naqadar go‘zal*



53-rasm. «O'zbekiston Qizil kitobi»ga kiritilgan hayvonlar: 1 — kapcha ilon; 2 — silovsin; 3 — tog‘ takasi.

shinalar ishlab chiqaramiz. Bularning hammasi tabiatga ta'sir etadi. Havo, suv, tuproqlar ifloslanishi, o'simlik va hayvonlar kamayishi mumkin.

Shuning uchun ham biz tabiatni toza tutib, uning boyliklarini asrashimiz kerak.

Tabiatni, yovvoyi hayvonlar va o'simliklarni asrab qolish, o'rganish va ko'paytirish uchun milliy bog'lar, qo'riqxonalar tashkil etiladi.

Mamlakatimizda asrab, ko'paytirilayotgan noyob yovvoyi hayvonlar va o'simliklar «O'zbekiston Qizil kitobi»ga kiritilgan.

Tayanch so'zlar: tabiat, inson, oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak, milliy bog', qo'riqxona, «O'zbekiston Qizil kitobi».



Savollar

1. Tabiat deganda nimalarni tushunasiz?
2. Inson tabiatdan qanday foydalanadi?
3. Insonning tabiatga ta'siri natijasida nimalar ro'y berishi mumkin?
4. Mamlakatimizdagi noyob hayvon va o'simliklar nima uchun «O'zbekiston Qizil kitobi»ga kiritiladi?



Topshiriq

«O‘zbekiston Qizil kitobi»ga kiritilgan hayvonlarning nomini eslab qoling (53-rasm). Ularni «Ish daftari»ngizga yozib qo‘ying.



30-§. SHAHARLAR VA QISHLOQLAR

Shahar ham, qishloq ham aholi to‘planib yashaydigan joydir. Biroq shaharlar qishloqlarga qaraganda juda katta, aholisi ko‘p, har xil korxonalar joylashgan bo‘ladi.



54-rasm. *Toshkentdan bir ko‘rinish*

Shuning uchun binolar, turarjoylar ko‘p qavatli qilib quriladi.

Shaharlarda ilm-fan, madaniyat markazlari, yirik korxonalar, teatrлar, o‘yingohlar joylashgan. Odamlar madaniy dam oladigan bog‘lar, xiyobonlar bunyod etilgan.

O‘zbekistondagi eng katta va ko‘rkam shahar mamlakatimizning poytaxti Toshkent shahridir (54-rasm).

Toshkentda tarixiy, madaniy yodgorliklar, zamonaviy baland va ko‘rkam binolar, so‘lim bog‘lar bor.

Korxonalarda xilma-xil mahsulotlar ishlab chiqariladi.

Respublikamizning turli viloyatlaridan kelgan yoshlar bu yerdagi oliy o‘quv yurtlarida bilim olishadi.

Mamlakatimizda qadimiy go‘zal shaharlar ko‘p. Samarqand ana shunday shaharlardan biri. Shaharda tarixiy yodgorliklar — Registon, Shohi Zinda ansamblari, Amir Temur maqbarasi bor (55-rasm).

Buxoro, Xiva, Qo‘qon shaharlari ham tarixiy yodgorliklarga juda boy. Andijon,



55-rasm. *Samarqand shahridagi
Registon maydoni*

Farg‘ona, Namangan, Termiz, Qarshi, Nukus, Urganch sanoati rivojlangan, chiroyli, katta shaharlar hisoblanadi.

Qishloqlar aholisining asosiy qismi qishloq xo‘jalik ishlari bilan band bo‘ladi. Ular bog‘larda mevalar, dala va polizlarda paxta, bug‘doy, makkajo‘xori, qovun, tarvuz, kartoshka, sabzi, karam yetishtirishadi.

Yaylovlarda, fermalarda, xonadonlarda sigir, qo‘y, echki, parrandalar boqib, ko‘paytiriladi.



56-rasm. *Qishloqlarda qurilayotgan yangi uylar*



57-rasm. *Qishloqdagi zamonaviy maktab*

Qishloqlarda ham yangi maktablar, bog‘-chalar, sport maydonlari, dam olish maskanlari, chiroyli yangi uylar qurilyapti (56-, 57-rasmlar).

Tayanch so‘zlar: shahar, qishloq, ilm-fan, madaniyat, korxona, tarixiy yodgorliklar.



Savollar

1. Qanday joylarga shahar deymiz?
2. Shaharlarda odamlar nima bilan shug‘ullani-shadi?
3. Qishloqlarda kishilar qanday ishlarni bajarishadi?
4. Hozir qishloqlarda nimalar qurilyapti?



Topshiriq

O‘zingiz yashaydigan joyda odamlar qanday ishlar bilan band ekanini kattalardan so‘rab, bilib oling.



31-§. O‘LKAMIZDA YOZ

Yoz fasli iyun oyidan boshlanadi va sentabirgacha davom etadi. Ammo bizning Vatanimizda may oyining o‘rtalaridan havo

yozdagidek issiq bo‘ladi. Yozda yomg‘ir juda kam yog‘adi.

Dalaga erta ekilgan sabzavot ekinlari, handalak, bodring, pomidor yetiladi.

Mevalardan qulupnay, o‘rik, gilos, ertangi olma pishadi. Maktablarda o‘qishlar yakunlanib, o‘quvchilar yozgi ta’tilga chiqishadi.

Bu vaqtda bolalar dam olish maskanlari, sog‘lomlashtirish oromgohlarida dam oладilar. Mamlakatimizda bolalar oromgohlari juda ko‘p. Ular tabiatni chiroyli, havosi toza joylarga qurilgan (58-rasm).

Tabiat qo‘yniga sayohatga chiqilganda yurishning, kiyinishning, suvda cho‘milishning o‘z qoidalari bor.

Oftobda bosh kiyimsiz yurish, gullar, o‘tlarni yulish, hasharotlarga, hayvon va qushlarga tegish, kattalar nazoratisiz suvgaga tushish, cho‘milish mumkin emas.

Bu qoidalarga, albatta, rioya qilish kerak. Shunda turli ko‘ngilsiz hodisalar yuz bermaydi. Sayohat rahbarlari yana boshqa qoidalarni tushuntirishadi.



58-rasm. O‘quvchilar oromgohda

Tayanch so‘zlar: yozgi ta’til, o‘quvchilar oromgohi, sayohat.



Savollar

1. Mamlakatimizda yoz qachon boshlanadi?
2. Yozda ob-havo qanday bo‘ladi?
3. Bahorning oxiri va yozning boshida qanday mevalar pishadi?
4. O‘quvchilar yozda qayerlarda dam olishadi?



Topshiriq

Siz yashaydigan joyda may oyida qanday mevalar pishishini aniqlang va ular nomini «Ish daftari»ngizga yozib qo‘ying.



32-§. 2-yarim yilda olgan bilimingizni tekshirib ko‘rish uchun testlar

1. Qaysi oylar qish oylari hisoblanadi?

- A) Yanvar, fevral, mart.
- B) Dekabr, yanvar, fevral.
- C) Noyabr, dekabr, yanvar.
- D) Yanvar, fevral.

2. Qishda issiqxonalarda qanday ekinlar yetishtiriladi?

- A) Turli meva, sabzavotlar, ko‘katlar.
- B) Olma, nok, uzum.
- C) Qovun, tarvuz.
- D) Hamma ekinlar yetishtiriladi.

3. Qaysi hayvonlar qishda uyda va fermalarda boqiladi?

- A) Ayiq, tulki, turna.
 - B) Burgut, tuya, laylak.
 - C) Sigir, ot, tovuq.
 - D) Qo'y, bug'u, kaptar.
- 4. Bahorda ob-havo qanday bo'ladi?**
- A) Kunlar juda isib ketadi.
 - B) Bahorda kunlar isiydi, yomg'ir ko'p yog'adi.
 - C) Kunlar sovib, suv muzlab qoladi.
 - D) Qor yog'ib, sovuq bo'ladi.
- 5. Navro'z bayrami qanday bayram?**
- A) Yangi yil, yangi kun bayrami.
 - B) Bahor boshlanishi bayrami.
 - C) Qish tugashi bayrami.
 - D) Kun-tun tengligi bayrami.
- 6. 21-mart qanday kun?**
- A) Bahor boshlanadigan kun.
 - B) Kechasi bilan kunduzi teng bo'ladigan kun.
 - C) Qish tugaydigan kun.
 - D) Daraxtlar gullaydigan kun.
- 7. Bahorda birinchi bo'lib qaysi gullar ochiladi?**
- A) Atirgul.
 - B) Lola.
 - C) Boychechak, lola-qizg'aldoq.
 - D) Pechakgul.
- 8. «Qora sovuq» qanday sovuq?**
- A) Bahorda birdan tushadigan sovuq.
 - B) Qishda kunning birdan sovib ketishi.
 - C) Rangi qora sovuq.

D) Qordan keyin keladigan sovuq.

9. Bahorda qaysi qushlar uchib keladi?

A) Qaldirg‘och, bulbul, turna, laylak.

B) Qarg‘a, musicha, chumchuq.

C) Qoraqush, boyo‘g‘li.

D) Burgut, kalxat.

10. Odamlar o‘ziga kerakli barcha narsani qayerdan oladi?

A) Bozordan.

B) Do‘konlardan.

C) Tabiatdan.

D) Bir-birlaridan.

11. Milliy bog‘lar, qo‘riqxonalar nima uchun bunyod etiladi?

A) Tabiat boyliklarini asrab qolish, o‘rganish va ko‘paytirish uchun.

B) Odamlar dam olishi uchun.

C) Chiroyli bog‘ qilish uchun.

D) Suvni saqlab qolish uchun.

12. Shaharlarning qishloqlardan farqi nima?

A) Shaharlар qishloqlardan juda katta bo‘ladi

B) Aholisi ko‘p bo‘ladi.

C) Binolar ko‘p qavatli qilib quriladi.

D) Uchchala javob to‘g‘ri.

13. Mamlakatimizdagi eng katta va ko‘rkam shahar qaysi shahar?

A) Samarqand.

B) Andijon.

- C) Buxoro.
- D) Toshkent.

14. Qishloqlarda nimalar qurilayapti?

- A) Yangi maktablar.
- B) Sport maydonlari.
- C) Chiroyli uylar.
- D) Uchchala javob to‘g‘ri.

15. May oxiri va yoz boshida qanday mevalar pishadi?

- A) Bodring, pomidor.
- B) Handalak, sabzavot ekinlar.
- C) Qulupnay, gilos, o‘rik.
- D) Uchchala javob to‘g‘ri.

YOZGI TOPSHIRIQLAR

Bolalar, sizlar yozgi ta’til vaqtida o‘quvchilar oromgohlarida dam olasiz, ota-onangiz, aka-ukalaringiz bilan tabiatning go‘zal, salqin joylarida bo‘lasiz.

Qayerda bo‘lsangiz ham «Atrofimizdagи olam» darslarida o‘rgangan narsalarni o‘sha joylarda ko‘rasiz. Ko‘rganlariningizni hikoya qilib yozing, rasmlar chizing, gerbariy tayyorlang. Bular haqida uchinchi sinfga kelganingizda gapirib berasiz.

Yozda yaxshi dam oling.



TEST SAVOLLARI JAVOBLARI

1-yarim yil uchun tuzilgan testlar javobi

Savol	Javob	Savol	Javob	Savol	Javob
1	D	6	C	11	B
2	D	7	D	12	D
3	A	8	A	13	B
4	D	9	A	14	C
5	A	10	B	15	B

2-yarim yil uchun tuzilgan testlar javobi

Savol	Javob	Savol	Javob	Savol	Javob
1	B	6	B	11	A
2	A	7	C	12	D
3	C	8	A	13	D
4	B	9	A	14	D
5	A	10	C	15	D

MUNDARIJA

Atrofimizdagi olamni o‘rganamiz

1-§. Atrofimizdagi olam	3
2-§. Tabiatdagi jism va moddalar	6
3-§. Ob-havo	19

O‘lkamizda kuz

4-§. Yil fasllari	13
5-§. Kuz ne’matlari.....	16
6-§. Ijtimoiy foydali mehnat	21
7-§. Kuzda hayvonlar va hasharotlar hayoti	23
8-§. O‘lkamizda uchraydigan qushlar	27
9-§. O‘simliklarning qishga tayyorlanishi	31
10-§. Gerbariy tayyorlash	34
11-§. Kasblar haqida.....	36

Ona zaminimiz – Yer

12-§. Yer — sayyora	39
13-§. Yerning harakatlari.....	42
14-§. Vaqt o‘lchov birliklari.....	44
15-§. Yer yuzasining tuzilishi	46
16-§. Suv — hayot manbayi	49
17-§. 1-yarim yilda olgan bilimingizni tekshirib ko‘rish uchun testlar.....	52

O'lkamizda qish

18-§. Qish	55
19-§. Qishgi mehnat.....	57
20-§. Uy hayvonlarining qishdagi hayoti.....	60
21-§. Yovvoyi hayvonlarning qishdagi hayoti.....	62

O'lkamizda bahor

22-§. Bahorda o'simliklar hayoti.....	65
23-§. O'simliklar qanday ko'paytiriladi?.....	69
24-§. Bahorgi mehnat.....	72
25-§. Bahorda hasharotlar hayoti.....	74
26-§. Navro'z — yangi kun.....	77
27-§. Bahorda o'lkamizga uchib keladigan qushlar.....	80
28-§. O'lkamizdagi yovvoyi va uy hayvonlari.....	83
29-§. Inson va tabiat	85
30-§. Shaharlar va qishloqlar.....	89
31-§. O'lkamizda yoz.....	93
32-§. 2-yarim yilda olgan bilimingizni tekshirib ko'rish uchun testlar.....	96
Yozgi topshiriqlar.....	99

Test savollari javoblari

1-yarim yil uchun tuzilgan testlar javobi.....	100
2-yarim yil uchun tuzilgan testlar javobi.....	100

**POTIHKAMOL G'ULOMOV,
SHAHRIXON MIRZAXMATOVA**

ATROFIMIZDAGI OLAM

*Umumiy o'rta ta'lif muktabalarining
2-sinfi uchun darslik*

**Qayta ishlangan va to'ldirilgan
oltinchi nashri**

(O'zbek tilida)

Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2018

*Muharrir Davron Ulug'murodov
Badiiy muharrirlar Azamat Yuldashev, Nasiba Yoqubova
Texnik muharrir Yelena Tolochko
Musahhih Dilafro'z Choriyeva
Matn teruvchi Gulchehra Azizova*

Litsenziya raqami AI № 163. 09.11.2009. Bosishga 2018-yil 16-aprelda ruxsat etildi.
Bichimi 70x90¹/₁₆. Ofset qog'ozi. School garniturasi. Kegli 16, 14. Shartli bosma
tabog'i 7,60. Nashr tabog'i 7,30. Adadi 490375 nusxa. Sharhnomha № 33–2018.
Buyurtma № 111-18.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa
ijodiy uyi. 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.
Telefon: (371) 244-10-45. Faks: (371) 244-58-55.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining «O'qituvchi» nashriyot-matbaa ijodiy
uyida chop etildi. 100206, Toshkent, Yunusobod dahasi, Yangi shahar, 1.

G'ulomov, P.
A 87 Atrofimizdagi olam [Matn]: 2-sinf uchun darslik / P. G'u-
lomov, Sh. Mirzaxmatova; mas'ul muharrir: H. Vahobov. — Qayta
ishlangan va to'ldirilgan oltinchi nashri — T.: Cho'lpon nomidagi
NMIU, 2018. — 104 b.
ISBN 978-9943-05-819-4

UO'K 372.362.(075)
KBK 20.18#71

Ijaraga berilgan darslik holatini ko'rsatuvchi jadval

T.r.	O'quvchi-ning ismi, familiyasi	O'quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgandagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1.						
2.						
3.						
4.						
5.						
6.						

**Darslik ijara berilib, o'quv yili yakunida
qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari
tomonidan quyidagi baholash mezonlariga
asosan to'ldiriladi:**

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo'q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta ta'mirlangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqovaga chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi.